

MAKTAB O‘QUV REJASIDA TEXNOLOGIYA FANINING QO‘YILISHI UNING TARIXIY TARAQQIYOTI

Nozima Muqimovna Hamdamova

Falsafa fanlari doktori(PhD), dotsent

Nozima Xayrullayeva

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mehnat ta’limi fanining fan sifatida yuritilishi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta’lim to’g’risidagi qonun” asosida mehnat ta’limi fan dasturi mazmuni ham barcha umumta’lim fanlari kabi milliyashtirilishi. Umumiy o’rta ta’lim maktablariga kirib kelishi sobiq ittifoq yillariga to’g’ri kelgan. Maktab o’quv rejasining mazmuni Ta’limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim, texnologiya, fan, o’quvchi.

Umumiy o’rta ta’lim muassasalari o’quvchilarining xorijiy tillar va kasb-hunarga bo’lgan qiziqishini oshirish, ushbu jarayonga ish beruvchilarni keng jalb qilish hamda mehnat bozori talablariga mos malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-79-son [Farmonida](#) 2023/2024 o’quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich umumiy o’rta ta’lim muassasalarining 1 — 4-sinflarida o’quvchilarga boshlang‘ich, 5 — 9-sinflarida tayanch hamda 10-11-sinf o’quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo’lgan bilimlarni berishga yo’naltirilgan o’quv dasturlari joriy etilishi nazarda tutilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2024/2025 o’quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich tajriba-sinov tariqasida quyidagi tartibni joriy qilish to’g’risidagi takliflari ma’qullansin:

umumiy o’rta ta’lim muassasalarining 10-11-sinflarida tayanch o’quv rejasi asosida o’qitish bilan bir qatorda “Fanlarni chuqurlashtirib o’qitish” hamda “Biznes va kasb-hunarga o’qitish” yo’nalishlari bo’yicha ham ta’lim dasturlarini joriy qilish;

“Fanlarni chuqurlashtirib o’qitish” yo’nalishi doirasida — o’quv jarayonini tashkil etishda asosiy e’tiborni aniq, tabiiy yoki xorijiy til fanlariga qaratish, “Biznes va kasb-hunarga

o‘qitish” yo‘nalishi doirasida esa — o‘quvchilarni ishchi yoki raqamli texnologiyalarga oid kasblarga o‘qitish.

Mehnat ta‘limi fanining fan sifatida umumiy o‘rta ta‘lim maktablariga kirib kelishi sobiq ittifoq yillariga to‘g‘ri keladi. Bu davrlarda mehnat ta‘limi fani ishlab chiqarish mehnati bilan uyg‘unlashtirildi. Bir guruh o‘qituvchilar va metodistlar maktabda o‘qitiladigan fanlarni hayot bilan bog‘lash uchun maktabda mehnat ta‘limi fanining mustaqil fan sifatida kiritilishi zarurligi taklifini beradi. Ikkinchi guruh pedagoglar birinchi guruh fikrlarini inkor qilib, maktab o‘quv rejasidan o‘rin olgan boshqa fanlarni o‘qitish orqali 15 ham mehnatga o‘rgatish mumkinligini ma‘qullaydi. 1920-yildan boshlab mehnat ta‘limi maktab o‘quv rejasida fan sifatida emas, balki kompleks tizim, keyinchalik loyiha tizimi asosida o‘qitila boshlandi. 1932-yilda boshlang‘ich va o‘rta maktablarning o‘quv dasturlari va rejimi to‘g‘risidagi qarorida maktablarda fan asoslarini predmetli o‘qitish ishlab chiqiladi. O‘quv rejasiga boshqa o‘quv fanlari bilan bir qatorda mehnat ta‘limi ham mustaqil predmet bo‘lib kirdi. Bu davrda mehnat ta‘limi o‘qituvchisi mutaxassislari ta‘minlanmaganligi, moddiy baza yaratilmaganligi sababli 1937- yilda maktablarda mustaqil o‘quv fani sifatidagi mehnat ta‘limi tugatildi. 1952- yilda mehnat ta‘limiga jamoatchilik e‘tibori qaratildi va maktabda politexnik ta‘lim va mehnat tarbiyasini rivojlantirish zarurligi ko‘rsatildi. 1954-yilda mehnat ta‘limini o‘rta maktab o‘quv rejasiga o‘sib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish vositalaridan biri sifatida kiritildi. Shu yillardan boshlab mehnat ta‘limi fanida o‘quvchilarni kasbiy tayyorlash yo‘lga qo‘yildi va 200 turdagi kasblarga tayyorlandi.

Ma‘lumki, bu davrda ishlab chiqarish sanoatini rivojlantirishga katta ahamiyat berildi. 1984-yilda mehnat ta‘limiga ajratilgan umumiy soat ikki barobarga oshdi, o‘quvchilar unumli mehnatga va shu bilan birgalikda ishlab chiqarish mehnatiga o‘rgatildi. Bunda 8-9-sinflarda profilli o‘qitish boshlandi va “Ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo‘llash” fani kiritildi

5. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, 1997-yilda qabul qilingan “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonun” asosida mehnat ta‘limi fan dasturi mazmuni ham barcha umumta‘lim fanlari kabi milliy lashtirildi. Dastur mazmuniga o‘zbek milliy xalq hunarmandchiligi turlari, o‘zbek milliy taomlarini tayyorlash texnologiyasi, milliy kiyimlar va buyumlar tayyorlash texnologiyasi mavzulari kiritildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 16-avgustdagi 390-sonli Qarori bilan tasdiqlangan mehnat ta‘limi fanining davlat ta‘limi standartiga asosan 5 ta yo‘nalishlar bo‘yicha milliy dastur asoslangan ta‘lim-tarbiya ishlari olib borildi. 2010-yilda davlat ta‘lim standarti hamda o‘quv dasturlari mehnat ta‘limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘zaro integratsiyalashtirilib, 5ta yo‘nalish 3taga keltirildi, ya‘ni:

“Gazlamaga ishlov berish texnologiyasi” va “Pazandachilik asoslari” yo‘nalishlari mazmunan 16 umumlashtirilib, “Servis xizmati” yo‘nalishi; “Yog‘ochga ishlov berish texnologiyasi” va “Metalga ishlov berish texnologiyasi” yo‘nalishlari umumlashtirilib, “Texnologiya va dizayn” yo‘nalishi mazmuni ishlab chiqildi. “Qishloq xo‘jaligi asoslari” yo‘nalishi zamonaviy talablar darajasida modernizatsiya qilinib, uning mazmuni hamda ishlab chiqarish asoslari va kasb tanlashga yo‘llashga oid bilimlar bilan to‘ldirildi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining o‘quv rejasida mehnat ta‘limi o‘quv faniga 1-4-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7-sinflarda 2 soatdan va 8-9-sinflarda 1 soatdan vaqt yuklamasi ajratilgan. Hammasi bo‘lib bir yilga 407 soat o‘quv yuklamasi bajarilishi belgilangan. 8-9 sinflarda “Xalq hunarmandchiligi”, “Ishlab chiqarish asoslari” bo‘limlarida o‘quvchilarga xalq hunarmandchiligini zamonaviy dizayn ko‘rinishida mahsulot tayyorlash va ularni bozor munosabatlariga o‘rgatish kiritildi. Mehnat ta‘limi fanining tarixiy taraqqiyoti tahlil qilinganda turli siyosiy davrlarda fanning mazmuni o‘zgarib borganligini kuzatish mumkin. Jahondagi rivojlangan davlatlar ta‘lim tizimi o‘rganilganda mehnat ta‘limiga katta e‘tibor qaratilganligi va o‘quvchilar maktab yoshidan mustaqil ijodiy ishlarni bajarishga o‘rgatilayotganligini ko‘rish mumkin. Shu kungacha mehnat ta‘limi darslarida o‘quvchilarga oddiy mehnat usullari o‘rgatib kelinganligi va oddiy qo‘l asboblardan foydalanib mahsulot tayyorlanishi sababli fanning nomi ham “Mehnat ta‘limi” deb yuritilishi mos bo‘lgan. Har qanday mahsulot tayyorlash zamonaviy jihozlardan foydalanish bilan birga ma‘lum bir ketma-ketlikdagi texnologik jarayonlardan o‘tadi, shuning uchun mehnat ta‘limi fanini hozirgi zamon talabiga yetkazish, nufuzini ko‘tarish maqsadiga, avvalo, fanning nomini o‘zgartirish, qolaversa, mazmunini tubdan qayta ko‘rib chiqish va o‘zgartirish orqali erishiladi. Umumta‘lim tizimida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ilgari surgan O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining ijtimoiy soha rivojiga doir tegishli yo‘nalishida ta‘lim bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilandi.



1-rasm.

Maktab o'quv rejasining mazmuni Ta'limning mazmuni uning maqsadidan kelib chiqadi. Ta'limning mazmuni deganda o'quvchilarni o'qish jarayonida egallab olishi lozim bo'lgan hamda tizimga solingan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniq doirasi tushuniladi. Ta'limning mazmuni bir qator ehtiyojlarni hisobga olish bilan belgilanadi:

1. Itimoiy ishlab chiqarishni eng zarur ehtiyojlari, ijtimoiy tuzimni xususiyatlari.
2. Davlatning xalq ta'limi va muayyan turdagi o'quv yurt oldiga qo'yadigan maqsad hamda vazifalari;
3. O'qitish qoidalaridan kelib chiqadigan va o'quvchilarning imkoniyatlarini (yosh imkoniyatlar va boshqalar) e'tiborga oluvchi didaktik talablar. Ta'lim mazmuni, o'quv rejasi, dasturi va darsliklarida ifodalangan.

O'quv reja. O'qitiladigan fan, uning bo'limlari, o'qitilish tartibi hamda har bir fanning yil davomida o'qitilishi, ularning o'quv yili va haftasida qancha miqdorda o'tilishi kerakligini belgilab beradigan rasmiy pedagogik hujjat. O'zbekistonda O'quv rejasi tegishli vazirliklar tomonidan tuziladi va tasdiqlanadi. Bir tipdagi o'quv yurtlari uchun o'quv rejasi yagona va majburiydir. Shu bilan birga, har bir o'quv yurti o'quv rejasini belgilangan miqdorda o'zgartirishi mumkin. Shuningdek, mamlakatdagi tayanch oliy o'quv yurtlari uchun o'ziga xos o'quv rejasiga ega bo'lishga ruxsat etilgan. O'quv rejasining umumiy va majburiyligi ta'lim tizimi bosqichlarining uzluksizligini, jamiyatning barcha a'zolariga ilm olishning bir xil imkoniyatlarini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida ta'lim tizimi barkamol shaxsni shakllantirishga qaratilganligi uchun ham o'quv rejasida ta'limning insonparvarlashuviga alohida e'tibor berilgan. O'quv yurtlarining o'quv rejasi muayyan qismlardan iborat bo'lib, ularda o'quv yurti o'quvchisi, talabasi yoki tinglovchisida 19 shakllantirilishi lozim bo'lgan ilmiy, ma'naviy, kasbiy sifatlar hamda amaliy ko'nikma va malakalar hisobga olingan. O'quv rejasi - barcha umumta'lim maktablarida so'zsiz amal qilinishi lozim bo'lgan davlat hujjatidir. Unda sinflar bo'yicha o'rganilishi kerak bo'lgan o'quv fanlari va o'sha fanlar uchun ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatilgan bo'ladi. Maktabning yagona o'quv rejasi xalq ta'limi tomonidan tasdiqlanadi.

O'quv rejasida o'qitiladigan fanlar, o'qitish uchun ajratilgan soatlari ko'rsatilgan bo'ladi. O'quv rejasini tuzishda quyidagi omillarga asoslanadi.

1. O'quv rejasi o'quv-tarbiya ishining maqsad va vazifalariga asoslanadi. Maqsad - ilmiy bilimlar berish, olgan bilimlarni hayotda qo'llay olishga o'rgatish.
2. Maktablarning birligi o'z qoidalariga asoslanadi. (ya'ni: boshlang'ich maktab -1-4 sinflar, to'liqsiz maktab-5-9 sinflar, umumiy o'rta ta'lim maktabining 10-11 sinflarining o'zaro bog'liqligi). To'liqsiz va o'rta maktablarda o'quvchilarga bir butun tugal bilim beriladi. O'quv rejasiga kiritilgan fanlarning hajmi qaysi sinfdan o'qitilishi, ajratilgan soati, o'quvchilarning

yosh va bilim saviyasiga qarab beriladi. Fanning hajmi, og‘ir-yengilligi, didaktik-ahamiyati ham e‘tiborga olinadi. O‘quv rejasiga kiritilgan fanlar, birinchi navbatda, umuminsoniy tarbiyaning maqsad va vazifalarini amalga oshirishga qaratilgandir. Unda ta‘limning ilmiyligi g‘oyaviylik hamda O‘zbekistonning kelajagiga munosib barkamol insonning tarbiyalab, voyaga yetkazish nazarda tutiladi. Shuning uchun ham unda tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlar, ishlab chiqarish asoslari, san‘at va jismoniy tarbiya, sog‘lom avlodning ma‘naviy qiyofasi asosiy o‘rinni egallaydi.

3. Tabiiy fanlar - tabiiy geografiya, biologiya, fizika, astronomiya, ximiya, matemateka va informatika markaziy o‘rinni egallaydi. Ijtimoiy fanlar - tarix, til haqidagi ilmiy bilimlar - ona tili, ingliz tili, rus tili va boshqa chet el tillari, badiiy va san‘at asoslari- adabiyot, tasviriy san‘at, musiqa va ashula; jismoniy tarbiya asoslari bilan bir qatorda hamma sinflarda texnologiya ta‘limini o‘qitish uchun soatlar ajratiladi. Umumiy o‘rta ta‘limning davlat ta‘lim standartining tarkibiy qismlarining tayanch o‘quv rejasini umumta‘lim fanlari bo‘yicha 20 belgilangan ta‘lim mazmunini o‘quvchiga yetkazish uchun ajratilgan o‘quv soatlari (davlat ixtiyoridagi va maktab ixtiyoridagi soatlar)ning minimal hajmini belgilaydi



2-rasm.

Xulosa qilib aytganda mehnat ta‘limi hozirki kunda barcha sohalarda kerak bo‘lib kelinmoqda. Yuqori sinflarda kasb tanlashda yordam beradi, to‘g‘ri yo‘lga solib boradi. Mehnat ta‘limi hozirki kunda Texnologiya ta‘limi bo‘lib o‘quvga chiqarilyapti. Texnologiyada barcha fanlar qamrob olgan bo‘lib, o‘quvchilarning qiziqishini, ixtirochili, qobiliyatlarni yuzaga chiqarish juda qulay bo‘lgan holda o‘qitilyapti. Barcha sohada bu ta‘limga duch kelishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston 1.Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son [Farmonida](#) 2023/2024
2. Boshlang‘ich ta’lim fanlari bo‘yicha standart tekshiruv ishlari to‘plami “Marifat-madatkor” Toshkent-2002-yil).R.Safarova, U.Musayeva, P.Musayev, F.Yunusova.
- 3.O‘zbekiston Respublikasida umum o‘rta ta’lim strategiyasi muammolari va ta’lim mazmuning yangi moddalari ularni tadbiq etish yo‘llari. (Fan nashriyoti Toshkent-2005-yil)
- 4.Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. “Mehnat ta’limi” 2-sinf darsligi. T., “Nafis bezak” 2012-yil.
- 5.Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. “Mehnat ta’limi” 3-sinf darsligi. T., “Nafis bezak”. 2012-yil.